www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Sharqning qomusiy allomasi - Abu Rayhon Beruniy

Murodova Bibisora
Temiz davlat pedagogika institute Tarix fakulteti
Milliy g‘oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q.

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqola o’rta asrlar sharqining buyuk allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniyning hayoti, asarlari, ilmiy kashfiyotlari, ilm-u ma’rifati va ba’zi asarlaridagi ma’lumotlarni ko’rsatishga qaratilgan. Beruniyni Xorazmning hukmdori Abu Abbos Ma’mun II ibn Ma’mun tomonidan tashkil etilgan akademiyasida olib borgan xizmatlari haqida izoh berilgan. Bu maqolamiz orqali yoshlarimizni buyuk ajdodlarimizning qilgan ishlari va ilmiy merosi haqida yana bir bor xabardor qilish va ajdodlarimizning ilmiy merosini o’rganishni targ’ib qilishga xizmat qiladi.
Kalit so’zlar: Abu Rayhon Beruniy, qomusiy olim, ijodiy merosi, Xorazm, ‘’Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar’’, ‘’Hindiston’’, ilmiy asarlari, matematika, astranomiya, Ma’mun akademiyasi.

Annotation: This article aims to show information about the life, works, scientific discoveries, knowledge and some of the works of Abu Rayhan Beruni, one of the great scholars of the Middle Ages. Beruni's services in the academy established by the ruler of Khorezm, Abu Abbas Ma'mun II ibn Ma'mun, are explained. Through this article, we will once again inform our youth about the work and scientific heritage of our great ancestors and promote the study of the scientific heritage of our ancestors.
Key words: Abu Rayhan Beruni, encyclopedic scholar, creative heritage, Khorezm, ‘’Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar’’, ‘’Hindiston’’, scientific works, mathematics, astronomy, Mamun Academy
Аннотация: Целью данной статьи является показать информацию о жизни, творчестве, научных открытиях, знаниях и некоторых произведениях Абу Райхан Беруни, одного из великих учёных Средневековья. Объясняются заслуги Беруни в академии, основанной правителем Хорезма Абу Аббас Мамун II ибн Мамун. Благодаря этой статье мы еще раз проинформируем нашу молодежь о творчестве и научном наследии наших великих предков и будем способствовать изучению научного наследия наших предков.
Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, энциклопедист, творческое наследие, Хорезм, «Реликвии древних народов», «Индия», научные труды, математика, астрономия, Академия Мамуна.

O’rta Osiyo balki, butun dunyoni ilm-u ma’rifati bilan lol qoldirgan dunyo tan olgan buyuk ajdodlarning farzandi ekanligimizdan faxrlanamiz. Shunday allomalarimizdan biri Abu Rayhon Beruniydir. Abu Rayxon Beruniyning hayoti va ijodi haqida juda ko’p olimlar asarlar, maqolalar va ilmiy ishlarida turlicha qarashlarni ilgari suradilar. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin buyuk ajdodimiz ilmiy merosini o’rganishga katta e’tibor berildi.

Abu Rayhon Beruniy 973-yilda Xorazmning Kat shahrida tavallud topgan . Olimning asl ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy bo‘lib, olim o‘z umrini ko‘p vaqt vatandan uzoqda o‘tkazishga majbur bo‘lganligi uchun uning ismiga “berun –tashqari” so‘zi qo‘shib aytiladi. Abu Rayhon esa arabcha —”Rayhonning otasi” yoki “rayhonli kishi” degan

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

ma‘noni beradi.[4] Uning hayoti haqida ma’lumotlar juda kam, hayoti haqidagi ba’zi ma’lumotlar asarlaridagina uchraydi.[3] Abu Rayhon Beruniy dastlab Urganchda ta’lim olgan, yoshligidanoq ilmga qiziqqan va ilm bilan mashg’ul bo’lgan. Abu Rayhon Beruniyni Xorazmning buyuk allomasi nafaqat Xorazmning balki butun Sharqning qomusiy olimi desak mubolag’a bo’lmaydi. Al-Beruniy mashhur ustozlardan: Abu Nasr Mansur ibn Iroq (astronomiya, geometriya va matematika), Abu Sahl Iso al-Masihiy (astronomiya, netrologiya, tabobat) lardan ta‘lim oldi.

Abu Rayhon Beruniy tarix, geografiya, matematika, menerologiya, astranomiya va boshqa fanlar bo’yicha 160 dan ortiq asar yozgan. Amerikalik tarixchi D. Sarton buyuk olim haqida “Astranomiya va matematika, astrologiya va jo’g’rofiya, antropologiya va etnografiya, arxeologiya va falsafa, botanika va menerologiya uning buyuk nomisiz qashshoqlashib qolardi’’ deya ta’rif bergan.

Abu Rayhon Beruniy ko’plab ilmiy izlanishlar qilgan. Uning ilmiy izlanishlari haqida gapiradigan bo’lsak, Beruniy: «Erning harakatsizligi (masalasi) astronomiya fanining asosiy masalalaridan biri bo‘lib, bu haqda yuz beradigan shubhalarni yechish qiyin», deb yozadi. Osmon jismlarini geometrik tushuntirish asosida Beruniy Kopernikdan bir necha asr avval Yerni koinotning markazi deb biluvchi geotsentrik va quyoshni koinot markazi deb o‘rgatuvchi geliotsentrik tizim teng kuchga ega, degan xulosaga keladi. “Geodeziya” asarida Beruniy geotsentrizm bilan bog„liq bo„lgan ba‘zi bir nazariyalarning to„g„riligiga shubha bilan qaraganini ochiqdan-ochiq bayon etadi.

Beruniy ‘’Ma’sudning astranomiya va yulduzlarga oid qonuni’’ asarida jahon xaritasini keltirib o’tib Yevropalik olimlardan birinchi bo’lib Amerika qit’asi mavjudligini taxmin qilib, o’z asarlarida bir necha bor aytib o’tgan. Abu Rayhon Beruniyning g’arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to’g’risidagi fikri 15-16-asrlarda o’z tasdig’ini topgan edi. U matematika faniga ham o’zining katta hissasini qo’shadi. Yer uzunligni o’lchashda matematik usulni ishlab chiqqan.

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, ”Menerologiya”, “Geodeziya”, “Hindiston” va boshqa asarlari mavjud. “Qadimiy xalqlar xronologiyasi” nomli ilk asarida Abu Rayhon Beruniy o’sha davrdagi barcha xalqlarga tegishli salnoma tizimlarini ta’riflab chiqqan. Beruniy tomonidan qilingan astranomik tadqiqotlari va ilmiy ishlari “Astranomiyaning asosiy boshlanish shaharlari kitobi”da yozilgan.

1017-yilda Xorazm Mahmud G’aznaviy tomonidan bosib olingunga qadar Beruniy Ma’mun akademyasida ijod qilgan. Bosib olingandan keyin esa barcha olimlar qatorida G’azna shahriga olib ketilgan. Beruniy turli safarlarda bo’ladi, shulardan Mahmud G’aznaviyning Hindistonga qilgan safarida ishtirok etadi. G’azna hukmdori Ma’sud G’aznaviyga atab “Qonuniy Ma’sudiy” asarini ham yozadi, Ma’sud G’aznaviy Beruniy ijod bilan shug’ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan, bu haqida Beruniyning o’zi asarlarida keltirib o’tgan.[5] Beruniy ona tilidan tashqari fors, yunon, arab, Sanskrit, suriy tillarini bilgan va ko’plab tarjimalari mavjud.[6]

U o’zining ‘’Hindiston’’ asarida Hindlarning yashash tarzi, madaniyati va ilm fanlari haqida batafsil ma’lumotlarni bergan. XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ajdodarimizning ilmiy merosiga qiziqish boshlandi. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning merosiga ham. Uning asarlari asosan lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors va turk tillariga tarjima qilindi.’’Amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni ‘’Beruniy asri’’ deb ta’riflaydi’’. Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, ilmi, urf-odatlari, dini tarixini o’rganishga qo’shgan ulkan hissasiga yuqori baho beradilar. Shuningdek, Beruniy

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

merosi rus olimlarini ham qiziqtirib kelmoqda edi, ular ham Beruniyning ijodiy merosiga yuksak baho berdilar. Vatanimizda I.M.Mo'minov, H.M. Abdullayev, V.Y.Vohidov, S.A. Bugakov, U.Karimov va F.G'ulomov kabi olimlarimiz Beruniy haqida qator risola va asarlar yaratdilar.[4]

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o'zining ''Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch'' asarida buyuk allomalarimizga ta'rif berar ekanlar '' Beruniy ilmiy masalalarda ham tarixiy voqea-hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan…''[2] deb aytadilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 25 avgust kuni «Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida»gi qarorni imzolashini misol keltirishimiz mumkun.

Toshkentda allomamizga bag'ishlangan qator xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Beruniyning saylanma asarlari o'zbek va rus tillarida nashr etildi. Beruniyning ilmiy va falsafiy ulkan merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak biz avvalo o'z tariximizni bilishimiz kerak, eng birinchi navbatda ajdodlarimiz tarixini. Bizni yurtimizdan shunday buyuk olimlar, allomalar chiqdiki, ularni butun dunyo tan oldi.Ular o'zlarining ilm-u ma'rifati bilan jahonni lol qoldirdi. Shavkat Mirziyoyev: "Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar o'zlarining mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan sizlarning yoshingizda yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning muqaddas burchimizdir". Biz yoshlar albatta o'z tariximizni bilmog'imiz va bobolarimiz qoldirgan oltinga teng meroslarini qadrlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" T. "O'zbekiston" 2021. 485 bet
2. I.A.Karimov ''Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch'' T. " Ma'naviyat" 2008. 176
3. D. Bekchanov, D. Salayev "Abu Rayhon Beruniyning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi" Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni konferensiya matreallaridan 2022
4. S. Shoyimov, M. Primov "Abu Rayhon Beruniy – buyuk qomusiy olim" Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni konferensiya matreallaridan 2022
5. Abduraxmanov Sh. "Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi" Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni nomli konferensiya matriali 2022
6. N. S. Matxoshimov "Beruniyning aniq va tabiiy fanlarga qo'shgan buyuk merosi" Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni nomli konferensiya matriali 2022
7. Mamanovich, R. H. "Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management." *Middle European Scientific Bulletin* 18 (2021): 359-362.
8. Hakim, Rasulov. "Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System." *Бюллетень науки и практики* 7.3 (2021): 281-286.
9. Шарафутдинович К.С. (2023). Необходимость интеграции процессов экологического образования и обучения в обеспечении стабильности экотуризма в Узбекистане.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках , 2 (10), 230–233. Получено с

10. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 2 (1), 81-88.
11. Ikromovich, P. X. (2023). JADID MA’RIFATPARVARCHILIGI SHAKLLANISHIDAGI TARIXIY SHART-SHAROIT VA OBEKTIV ZARURIYAT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 167-179.
12. Рахманкулов, Ф. Р. (2022). МАВЗУ: МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ МАЪНАВИЙ ТАРРАҚИЁТНИНГ ОМИЛИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 752-755.
13. Kahramonovich, B. A. (2023). FACTORS OF CREATING A NATIONAL MODEL OF HOUSING POLICY IN UZBEKISTAN. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, *17*, 43-47.
14. Rashidovna, H. M. (2023). TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 763-772.
15. New Uzbekistan in the World's View: Achievements for Active Foreign Policy and Socio-economic Cooperation HM Rashidovna - International Journal on Integrated Education, 202
16. Arboblar.uz
17. Ziyonet.uz